



UO‘T: 631.527:633.51(575.1)

**G‘O‘ZANING EKOLO-GEOGRAFIK UZOQ NAMUNALARI VA
MAHALLIY NAVLARNI DURAGAYLASH ASOSIDA OLINGAN F₃
DURAGAYLARINING TOLA CHIQIMI VA SIFATI BELGILARINING
TAHLILI**

Muratova Raxima Temirbayevna.,
dotsent. Osh davlat universiteti.
e-mail: rmuratova@oshsu.kg

**Kasimov Jaqsiliq Ablakim uli., Ashirbaev Nursultan Shalabaevich.,
Abdiramanov Sultanmaxmud Jumanazarovich**
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabalari

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17536429>

Abstract: This article analyzes the main economic characteristics of cotton fiber - fiber yield and quality indicators. The relationship between fiber yield and quality, their dependence on genetic and environmental factors, and the importance of taking these traits into account in the breeding process are highlighted. Based on the research results, the possibility of isolating high-quality and effective varieties has been determined. The article has practical significance for breeder scientists, agronomists, and specialists engaged in cotton cultivation.

Keywords: fiber yield, fiber quality, cotton, selection, genetic factors, agricultural techniques, yield indicators, ecological conditions, variety selection, cotton growing.

Kirish (adabiyotlar sharhi). Paxtachilikda yuqori sifatli tola yetishtirish har doim dolzarb masala bo‘lib kelgan. Ayniqsa, bugungi kunda paxta tolasi sifati va chiqimi xalqaro bozorga mos, raqobatbardosh mahsulot yetishtirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Tola chiqimi va sifati paxta navining biologik xususiyatlari, agrotexnik tadbirlar va atrof-muhit omillariga bog‘liq bo‘lib, bu belgilarni chuqur o‘rganish seleksiya va genetik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada paxta tolasining chiqimi va sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar, bu belgilar o‘rtasidagi bog‘liqlik, shuningdek, seleksiya jarayonlarida ularni baholash metodlari tahlil qilinadi.

Talshiq shi‘gimi teorialiq belgi esaplanip, talshiq salmagini paxta shiyki zatina qatnası tısiniledi hám payızda túrlendiriledi. Talshiq shi‘gimi tuqımda‘gı (shigittegi) talshıqlardıń mu‘gdarı hám salmagına baylanıslı boladı. ‘Gawashanıń hár túrli formalarında talshiq shi‘gimi 12-15 payızdan 43-44 payız‘ga shekemgeshe bolıwı múmkin. Talshıgınıń uzınlı‘gı bolsa túr hám túrlerine násilli potentsiyal hámde jetistiriw sharayatınan kelip shıqqan halda 10 mm den 50-55 mm geshe bolıwı múmkin. Eń kelte talshiq ‘gawashanıń jabayı túrlerine, eń uzın talshiq G.barbadense L. túriniń Si-Aylend tiypindegi sort úlgilerinde ushıraydı [1].



X.Ashurbekov, E.Muqimov [2] lardín itibargá alıwınsha talshıq uzınlıgı bir sorttıń qásiyeti hám násillik bergileri áwlatıan áwlatqa ótiwi hámde tájiriye waqtında sol jerde alıp barılıp atırǵan agroteknikaǵa baylanıslıǵı úlken áhmiyetke iye ekenligin jazadı.

Sh.Namozov, A.Siddikov [3] maǵlıwmatlarında araganda talshıq shıǵımı hám uzınlıgı boyınsha jergilikli sortlardı óz ara shaǵılıstırıwdan alınǵan F_1 ápiwayı qospaqlarda geterozis, shet elli sortlar qatnasıwında alınǵanlarda aralıq násilleniwi, F_1 qos qospaqlarda túrli haldaǵı násilleniwi payda bolǵan.

N.X.Ismoilov [4] jazılıwınsha F_3 áwladında belgilerdiń jeke ráwishte ajralıwı nátiyjesinde hár túrli genotipler payda bolǵanlıǵı talshıq shıǵımı hám uzınlıgı kórsetkishleriniń jaqsı bolıwı shaǵılıstırıwda qatnasqan úlgeriniń genotipine baylanıslı ráwishte júzege shıǵadı.

Tola chiqimi yuqori bo‘lgan navlar kamroq xomashyo evaziga ko‘proq tola berishi sababli iqtisodiy jihatdan foydaliroq hisoblanadi.

Materiallar va uslublar. Ushbu tadqiqotlar doirasida esa, g‘o‘zaning duragaylash asosida olingan F_3 duragay avlodlari o‘rganildi. Tadqiqotlar Qoraqalpog‘iston dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining “G‘o‘za seleksiyasi va urug‘chiligi” laboratoriyasi kolleksiyasidan tanlab olinib, institutga qarashli tajriba xo‘jaligi dalalarida ekilib, chuqur o‘rganildi.

Natijalar va munozara. Bizning tadqiqotlarda F_3 duragaylari hamda standart nav sifatida S-4727 navi o‘rganildi. Biz asosiy e‘tiborni vegetatsiya davri, ko‘sak vazni, tola chiqimi va "Sifat" tashkilotlarining tola sifati bo‘yicha bergan ma‘lumotlariga qaratdik. Vegetatsiya davri o‘rganilgan duragaylarda turlicha ajralish tezligi ko‘rindi. Birinchi F_3 Akala-72 x S-4727 duragayida vegetatsiya davri 100 kundan 128 kungacha bo‘lgan oilalar o‘rganildi. O‘rtacha ko‘rsatkich 3 avloddagi oilalarda 113 kunni tashkil etadi. Ammo yakka tanlov ishlari natijasida 104 ta oila 100-108 kunlik ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Qolgan 63 ta oila vegetatsiya davri bo‘yicha chiqitga chiqarilmadi. Standart navga nisbatan o‘rtacha duragaylarning shu belgi bo‘yicha farqi 8 kunni tashkil etadi, lekin ayrim oilalarda ko‘saklar 13 kun oldin ochildi.

Ikkinchi F_3 Akala-72 x Chimboy-5018 duragaylarda oilalar 105 kundan 118 kungacha vegetatsiya davriga ega bo‘ldi. Lekin seleksiya ishlari natijasida 22 ta oila 104-112 kunlik ko‘rsatkichga ega bo‘ldi, qolgan 162 ta oila chiqitga chiqarildi. Xuddi shunday tezlik ikkinchi F_3 Akala-72 x KK-3535 duragayida ham kuzatildi va 31 ta oila 105-112 kungacha ochildi. O‘sha oilalar saqlanib qoldi, qolgan 96 ta oila chiqitga chiqarildi. Umuman o‘stirilgan 311 ta oiladan 51 tasi



vegetatsiya davri bo‘yicha 103-105 kunning tashkil etadi. Ushbu oilalar standart navga nisbatan 10-14 kunga tezpishar bo‘ldi.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori tola chiqimiga ega navlar tanlab olinib, ular asosida seleksiya ishlari olib borilsa, paxta yetishtirishda samaradorlik sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, tola chiqimi ko‘rsatkichlarini sifat bilan birgalikda baholash muhim, chunki ayrim hollarda chiqim oshgan sari tolada sifatning pasayishi kuzatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Amanturdiyev Sh.B. "Ingichka tolali g'wza selekciyasida duragaylararo chatishtirish uslubining ahamiyati. g'wza va ywldosh ekinlar wstirish texnologiyasi. Toshkent. 1994. 3-8 b.
2. Boboev Ya. A., Kim R.G., Amanturdiyev A.G. G'wzaning F₂ avlodida tezpisharlik belgilarining boshqa xwjalik uchun qimmatli belgilar bilan wzaro bog'lanishi. //G'wza genetikasi, selekciyasi, urug'chiligi va bedachilik twplami. –Toshkent, 2000.- 50-56 b.
3. Бобоев Я.О. Взаимосвязь скороспелости и некоторых морфохозяйственных признаков с естественно ранней листопадностью хлопчатника вида *G.Hirsutum L.* //Материалы международной научной конференции «Эволюционные и селекционные аспекты скороспелости и адаптивности хлопчатника и других культур» посвященной 95-летию со дня рождения академика С.С.Садикова. Ташкент.: Фан, 2005. 98-99 с.